

## “O‘ZLASHMA” SO‘ZINING NEMIS TILIDA TA’RIFI VA TASNIFI

Zulxonov Mustafo Jo‘rayevich

f.f.n., dotsent v.b., Toshkent davlat pedagogika universiteti,

E-mail: [zulxonovmustafo@gmail.com](mailto:zulxonovmustafo@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada nemis tiliga o‘zlashgan so‘zlarning tahlili ochib berilgan. Ularning o‘ziga xos ozlashish tarixi, ta’rifi, shakllanishi, rivojlanishi, davri, turlari, tildagi vazifasi va maqsadi, fanda egallagan orni kabi masalalar yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zlashgan so‘z, o‘zlashma, Entlehnung, o‘zlashtirish, o‘zlashish, moslashish, ifoda, muqobil variant, atama, fonetik, orfografik va morfemik xususiyatlar.

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ СЛОВА “ЗАИМСТВОВАНИЕ” В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Зулхонов Мустафа Жураевич

к.ф.н., и.о. доцент,

Ташкентского государственного педагогического университета,

E-mail: [zulxonovmustafo@gmail.com](mailto:zulxonovmustafo@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

*В статье раскрывается анализ заимствованных слов в немецкий язык. Объясняются такие вопросы, как их уникальная история, определение, формирование, развитие, эпоха, виды, функция и назначение в языке, их место в науке.*

**Ключевые слова:** заимствованное слова, заимствование, заимствовать, присвоение, адаптация, выражение, альтернатива, термин, фонетические, орфографические и морфемные признаки

## DEFINITION AND CLASSIFICATION OF THE WORD “BORROWING” IN THE GERMAN LANGUAGE

**Zulkhonov Mustafo Jurajevich**

Ph.D., Associate Professor, Tashkent state pedagogical university,

E-mail: [zulkonovmustafo@gmail.com](mailto:zulkonovmustafo@gmail.com)

**ABSTRACT**

*The article reveals the analysis of borrowed words in the German language. Questions such as their unique history, definition, formation, development, era, types, function and purpose in language, their place in science are explained.*

**Keywords:** borrowed words, borrowing, borrow, assignment, adaptation, expression, alternative, term, phonetic, spelling and morphemic features.

O‘zlashish jarayonlari asosan leksemalarni import qilish yo‘li bilan amalga oshirilganligi sababli o‘zlashma chet tilidagi shaklida qabul qilinadi. Bu o‘zlashmalar, o‘zlashmalarning o‘zlashish jarayoni yoki tashqi o‘zlashmalar natijasi sifatida gapiriladi. Ammo har doim ham chet tilidan faqat so‘zlar o‘zlashavermaydi. So‘zlar original tilidan to‘laligicha ya’ni o‘z morfem konstruksiyalari bilan ko‘chib o‘tishi va o‘z tilining o‘zlashtirma vositalari bilan yasalishi mumkin. Ushbu holat uchun alohida termin mavjud bo‘lib u nemis tilida “Lehnbildung” deb nomlanadi. Ko‘pincha faqat chet tilidagi so‘zlarning ma’nosi o‘zlashadi va mahalliy so‘z yordamga chaqiriladi. Ushbu eski so‘z uchun shu holatda “Lehnbedeutung” atamasi qo‘llaniladi. Yuqoridagi o‘zlashma jarayonlari uchun xususan so‘z materiallarining shakli va ma’nosini, ahamiyati va tuzilishini ifodalaydigan til ta’sirlarini o‘z ichiga olgan bir umumiy termin “Lehnpragung” qo‘llaniladi. O‘zlashmalarga xos bo‘lgan bu fikrlar Verner Betzning o‘z mualliflik asari “Deutsch und Lateinisch” da eski nemis adabiy tilidagi o‘zlashmalar asosida rivojlangan.

Nemis tili ilm-fanida chet tilidan o‘zlashmalarning ko‘plab tasniflari mavjud bo‘lsa ham, ular asosan Verner Betzga qaytadi va faqat uning tasnifini o‘zgartiradi. Lekin bu keng tarqalgan “Lehngut” tipologiyasi sof diaxron va yozma tilning leksik o‘tkazmalarini yozib olishga imkon beradi. Biroq, bu interferensiya hodisalarining

har doim bir xil tarzda va bir xil darajada birlashtirilganligi va qaysi qo‘sishimcha toifalar ulardan kelib chiqishi mumkinligi haqida hech qanday ma’lumot bermaydi.[9:116-128]

Quyida individual tarzda o‘zlashmalarning xususiyatlari, “Wortentlehnungen” - so‘z o‘zlashmalar va Chet so‘z va o‘zlashma (Fremdwort und Entlehnung) terminlar ma’nosi va ma’no chegaralash muammolari ko‘rib chiqiladi.

Chet so‘zmi yoki nemischa belgisi mavjud o‘zlashmami? degan savolga quyidagicha javob olingan. Bir tildan ikkinchisiga kirib kelib, chet so‘zning qay darajada qabul qiluvchi tilga o‘zlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chet so‘z

va uzlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta'kidlanib kelinmoqda. Bu masala bilan birinchilar qatori shug'ullangan nemis tilshunoslari o'zlashgan so'zlarni «aniq qilib chet so'z yoki o'zlashma ekanligini farqlab berish ba'zi bir sabablarga ko'ra qiyin ekanligi» [7:79], «chet so'zlar masalasi cho'g' temir ekanligi, kimki unga qul urmoqchi bo'lsa osongina barmoqlarini kuydirib olishi» [5:80] mumkinligini uqtirishgan edi. Ta'kidlangan qiyinchiliklarga, «ogohlantirishlarga» qaramay, tilshunoslikda o'zlashgan so'zlar klassifikaqiyasi buyicha katta ishlar qilindi, ilmiy fikr-mulohazalar bildirildi.

Nemis tilidagi o'zlashmalar natijalari uchun ikkita atama odatiy holga aylandi: „Fremdwort“ – chet so'z va „Lehnwort“ – o'zlashma so'z. Chet so'z va o'zlashma so'zlarining terminologik farqlanishi nemischalashtirish darajasiga bog‘liq.

Chet so'zi (Fremdwort) - bu asl shaklini, ya‘ni imlosi, fonetik shakli va fleksiyasini saqlagan holda, boshqa tildan umumiy lug‘at tarkibiga kiritilgan so'z.

Masalan: *Saison* < frz. *saison*.

Xorijiy so'z tushunchasining bugungi kundagi ma‘nosi, ehtimol qadimgi nemis tilining qadimgi davrlarida bo‘lmagandir. Rimliklardan tosh uylar qurishni o‘rgangan german qabilalari quyidagi so'zlarni o‘zga masofani saqlashi kerak bo‘lgan begona narsa sifatida tushunib yetmasdan qabul qildilar. Chet so'z atamasi birinchi bo‘lib XVIII asrda Jean Paul tomonidan yaratilgan. Shu bilan birga bu atama XVII asr o‘rtalarida Shoteliy kabi olimlarning e’tiborini tortdi. Faqat “Fremdwort” (Chet so'z) atamasi o‘rniga “ausländische Wörter”, yani xorijiy so'zlar terminlarini qo‘llaganlar.

Ushbu atamaning bahsli differentsiatsiyasi tufayli tilshunoslar orasida shunday fikr bor: [4:46] Agar siz ushbu atamani saqlamoqchi bo‘lsangiz, uni barcha holatlar bilan cheklappingiz va aniqroq farqlassingiz kerak. Nemis tili lug‘ati tarkibida muhim rol o‘ynamaydigan va moslashishning juda kam xususiyatlarini ko‘rsatadigan so'zlar uchun “Zitatwort” (O‘zlashma so'z – faqat ushbu so'z kelib chiqqan mamlakatda mavjud bo‘lgan narsalar yoki dalillarni belgilaydi, lekin o‘zlashib ishlatalayotgan tildagi emas) so'zi atamasi tavsiya etiladi. [8:48] “Zitatwort” lar maxsus nomlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan chet el so'zlarining maxsus guruhini tashkil qiladi, asosan ular ekzotizmlar va faqat ushbu mamlakatda mavjud bo‘lgan narsalarni bildiradi.

Masalan ingliz tilidagi *Quuen*, yapon tilidagi *Harakiri*, rus tilidagi *Duma*.

Nemis tilidagi chet tilidan o'zlashgan so'zlar jamlanmasidagi so'zni anglatgan, nemis tili tizimiga to‘liq mos keluvchi, nemis tilida gapiradiganlar tomonidan begona deb tan olinmagan, odatiy so'z boyligining bir qismi bo‘lgan va shu sababli nemis tilidagi so'z hisoblangan chet so'zni tavsiflash uchun “Lehnwort” termini ishlataladi. Bu termin asosan shunday o'zlashmalarga aytildiği, ular nemis tili lug‘ati tarkibiga to‘liq moslashgandir.

Masalan: der *Bischof* < griech. *episkopos*, *pfeifen* < lat. *pipare*, die *Kutsche* < ung. *kocsi*.

„Lehnwort“ atamasi XIX asrning o‘rtalaridan beri mavjud. Asta-sekin, ushbu atama nemis tilining tovush tizimiga va ichki fleksiyasiga shunchalik moslashgan va faqatgina etimologik tadqiqotlar davomida chet tilidan kirib kelgan so‘zlar ekanligini bilishimiz mumkin bo‘lgan o‘zlashmalar uchun ishlataladigan termin sifatida foydalinaldi deya ko‘rsatib o‘tilgan nemis ensiklopediyasida.

Ushbu nemischalashgan o‘zlashgan so‘zlar chet el tilining kelib chiqishini inkor qilmaydigan haqiqiy chet el so‘zlari bilan yonma-yon joylashgan, hattoki ushbu tilning oddiy ishtirokchisiga ham:

*Lyrik, telefonieren, intensiv*

Ammo hozirgi nemis tilida „Lehnwort“ atamasi nemis tilining tovush, yozuv va fleksiyasiga moslashmagan, ammo ozmi-ko‘pmi yaxshi ishlataligan boshqa tillardagi leksemalar uchun ham ishlataladi.

Masalan: *Curry ‘Gewürzmischung’*.

Biroq, „Fremdwort“ (chet so‘z) va „Lehnwort“ (o‘zlashma) farqlari o‘rtasiga aniq chiziq chizish har doim ham mumkin emas. Agar o‘zlashmalar nemis tiliga juda moslashgan bo‘lsa, biz ularni „Lenhwort“ deb ataymiz. Sinxron tarzda ko‘rib chiqilganda, bularni nemischa so‘zlar sifatida baholash kerak: Ular odatda tushunarli va tovush tizimida va fleksiyada farq yo‘q bo‘ladi.

Masalan: *Wein und Stein*.

Buni faqat tarixiy tadqiqotlarga ko‘rsatishi mumkin. Agar o‘zlashmalar begona tildagi shakllarini saqlab qolsa, urg‘u va talaffuzi bilan nemis tilidan farq qilsa, biz ularni „Fremdwort“ (chet so‘z) deb ataymiz. Ammo so‘zlarning butun guruhini ikkala guruhgaga ham ajratish mumkin:

Masalan *Kultur, Sport, Note, komisch, starten*

Aksincha, shunchalik keng o‘tish davri mavjudki, natijada „Fremdwort“ va „Lehnwort“ terminlari o‘rtasidagi farqni ajratishda ikkilanishlar yuzaga kelmoqda. Ba’zi chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar uzoq vaqt chet so‘z bo‘lib qolmoqda, boshqalari esa „Lehnwort“ ga juda tez o‘tmoqda.

Turli xil tahlillar ko‘rsatganidek, hukm har bir holatda umumiy emas, balki individualdir, so‘z chet el so‘zi yoki yo‘qligini hal qilishda, til tashuvchisi, ayniqsa, quyidagi mezonlarga rivoja qiladi. [1:27]

1. Talaffuz, so‘z urg‘usi va yozilishi. *Bibliothek*, *Luxus*, *extra*, *Club* so‘zlarini deyarli 100% til egalari chet so‘zlari deb hisoblashadi, lekin nemischalashgan yozuvdagagi *Klub* so‘zini 20% odamgina chet so‘z ekanligini bilishadi. Ammo ba’zida nemislashtirilgan imlo darhol sezilmaydi, masalan. *Telefon* o‘rniga *Telephon* hali ham ularning yarmini nemis tilidagi so‘z emasligini bildiradi.

Nemischa so‘zining urg‘usi ahamiyati *Café* so‘zini *Kaffee* dan ajratib turadi, ya’ni kafeni qahvadan ajratib turadi.

2. So‘zning morfemik tuzilishi va shu bilan uning so‘z yasalishi paradigmalariga qo‘shilishi. Fonemalar yoki morfemalarning ayrim ketma-ketliklari xorijylarning muhrini bosadi va ushbu so‘zlar osongina begona so‘zlar deb nomlanadi: Masalan: *Nation*, *Revolution*, *expressiv*, *Humanismus*. Gibrid shakllanishlar (aralash shakllanishlar), mahalliy va xorijiy tillarning qo‘shimchalari birikmasi bilan qaror qabul qilish yanada qiyinlashadi. Masalan, *buchstabieren*, *temperamentvoll*. *Buchstabieren*-ieren qo‘shimchasini olgandan keyin begona so‘z sifatida anglanilgan bo‘lsa, unga qarama-qarshi sifatida *temperamentvoll* so‘zi nemischadir. Begona affiks chet tili xarakterini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zlashgan so‘zlar so‘z yasash paradigmalarida turlicha tasniflanadi. Uzoq vaqtidan beri o‘zlashgan so‘zlar ba’zi oddiy so‘zlarni (*Champagner*, *Chaussee*, *Clown*) tasniflash mumkin emas. Boshqalari kompozitalar hosil qiladi, ammo derivatsiyani emas. (*Toilette*, *Serviette*).

3. (Munozarali bo‘lsa ham) so‘zni ravonligi va kundalik tilda tanish darajasi. Respondentlar tomonidan tez-tez uchrab turadigan chet tili so‘zleri mahalliy, kamroq uchraydigan so‘zlar chet ellik deb ta’riflanadi. *Doktor* so‘zini uch qismi, *Diktator* so‘zini uchdan ikki qismi chet tili so‘zi ekanligini hamda *Familie* so‘zini esa o‘n foizdan kamroq chet tili so‘zi deb ta’riflanadi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, kamroq tarqalgan nemis tilidagi so‘zleri chet tili so‘zleri deb yuritiladi: *Flechse*, *tosen*. Agar so‘z bir nechta ma’noga ega bo‘lsa, ular ham turli xil ishlatilishi va ishlatilish vaziyatiga turlicha ta’sir qilishi mumkin. *Note* musiqiy belgi sifatida hech qanday holatda chet tilidan kirib kelgan so‘z sifatida qabul qilinmagan, *Note* „rasmiy yozma aloqa“ ma’nosida esa deyarli istisnosiz, *Note* „pul birligi“ ma’nosida esa so‘rovnomadagi ko‘philik chet tilidan kelgan so‘z sifatida qabul qilingan. Nemischalashtirish bosqichi jarayoni uchun nafaqat shakli, balki vazifasi ham hal qiluvchi hisoblanadi. Agar siz chet tili so‘zining funktsiyalari haqida gapiradigan bo‘lsangiz, unda siz birinchi navbatda ona tilingizdagi so‘zi bilan sinonim bo‘lgan birliklar nuqtai nazardan bo‘shliqlarni to‘ldiradigan birliklarni yodda tutasiz.

So‘zlar asrlar davomida o‘zlarining begonalik xususiyatlarini saqlab qolishlari mumkin va asrlar davomida nemischalashtirish darajasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Masalan: *Natur*, *Fundament*, *Apostel*.

Yuqoridagi kabi xorijiy so‘zlar IX asrda o‘zlashtirilgan:

*Bilanz*, *Bibliothek*, *Luxus* kabi so‘zlar esa nemis tilida XVI asrdan beri mavjud bo‘lib, ular odatda chet tilidan kirib kelgan so‘zleri sifatida qabul qilinmoqda.

Bugungi kundagi yosh chet tilidan o'zlashgan so'zlar hozirgi nemis tilida quyidagilar:

Masalan: *Videoclips, Pizza* va boshqalar.

XIX asrda qabul qilingan quyidagi so'zlarni deyarli barcha so'rovnoma da qatnashgan respondentlar nemischa so'zlar deb atashadi. [2:30]

Sinxronizatsiya nuqtai nazaridan "Lenwort" larni nemis tilining asl so'zlaridan farqlash mumkin emas, ular nemis tili qoidalari tizimiga moslashtirilgan.

Ajratish qanchalik qiyinligini fransuz tilidan o'zlashtirilgan "Garage" leksemasi ko'rsatib turibdi, bu so'z ko'pligini –n bilan yasaydi. – bunga qarama-qarshi sifatida "Hotel" so'zini olaylik - standart tilda u jarangli tovush bo'lgan asl chet tili fonemasi hisoblangan [s]> [ʒ] ni olgan. Masalan, romantizm tillaridan turli vaqtarda quyidagi so'zlar qabul qilingan:

*Banner*→, *Abenteuer*→, *Promenade*→, *Bassin*→, *Creme*.

Ular "Fremdwort" va "Lehnwort" lar o'rtasida keng o'tish maydoni mavjudligini ko'rsatadi. "Banner" so'zini faqatgina so'z tarixini ko'ribgina chet tilidan o'zlashganini bilish mumkin: aksenti, talaffuzi, imlosi, morfologiyasi nemis tili qoidalariغا mos keladi. Abenteur so'zi chet tilidan o'zlashgan deb qabul qilinadi, garchi u odatda nemis tili fonetikasi va grafemikasiga ergashsa ham, chunki u paradigmatic jihatdan qo'llab-quvvatlanmaydi va takrorlanuvchi morfemalarga bo'linmaydi. "Promenade" so'zida talaffuzi va –ade suffaksi orqali bilan ham chet tilidan o'zlashganini bilishimiz mumkin. "Bassin" so'zida frantsuzcha tovush o'zining asosiy tovushi sifatida saqlab qoldi: ya'ni [bass3ŋ] [bassi:n]emas. "Crème" so'zi uchun nemis tilida parallel shakli ham ishlab chiqilgan: bu *Krem (e)*. Kafe va qahva (yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek) shunga o'xshash tarzda xizmat qiladi. *Banner* va *Cafe* so'zlarini "Fremdwort" va "Lehnwort" ning qutbli qarama-qarshiligiga misol sifatida ko'rish mumkin. [6:236-264]

*Banner*      *Abenteuer Promenade Bassin Creme/Krem(e) Café*

Lehnwort

Fremdwort

Ushbu qutblar orasidagi chiziqdagi nuqta o'zlashtirilgan so'zlar uchun odatiy holdir. So'zlarining bunday o'zlashishlari nemis tilidan tashqari chet tili xususiyatlariha ham ega bo'ladi.

O'zlashma so'zlarining nemis tili tizimiga to'g'ri kelishini quyida ko'rib chiqamiz. Ko'pgina o'zlashmalarda ularning nemis tilidagi assimilyatsiya jarayonini kuzatib borish mumkin. Agar chet el tilidan olingan so'z o'zining tashqi shakli bilan nemis tiliga qabul qilinsa, nemis tili tizimiga moslashtiriladi. Bu esa asosan tovushlar, imlo va shakllarning shakllanishida ko'rindi. Shu bilan birga, to'liq integratsiya chet

tili so‘zi so‘z birikmasida doimiy o‘rnini topishi bilan amalgalashiriladi, chunki u ishlatalishdagi hosilalar yoki birikmalar orqali o‘zini barqarorlashtiradi va ehtimol ma‘lum uslubiy funktsiyalarni ham bajaradi. Sinxron tarzda ko‘rib chiqilganda, so‘zni endi mahalliy so‘zdan, *Wein* va *Ziegel* kabi misollardan ajratib bo‘lmaydi.

Fonetik-fonologik soha nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak ko‘pincha tovush o‘zlashmaning o‘zlashish jarayoni boshida o‘zgartiriladi va nemis tili tovush tizimiga moslashtiriladi. Bu judayam zarur, chunki qardosh tillarning fonema tizimlari ham mos kelmaydi. Tovush o‘rnini bosish odatda chet tili fonemasining o‘rnini shu kabi tovush chiqaradigan nemis fonemasi bilan almashtirishda sodir bo‘ladi.

Chet tilidan o‘zlashgan so‘zning nemis tilida so‘zlashuvchilar tilida og‘zaki shakli odatda boshidanoq manba tilidagi tovushga mos kelmaydi. Agar nemis tilida so‘zlashadigan inson [’mænidʒə(r)] va [klaun] deb aytgani uchun *Manager* va *Clown* so‘zlarini ingliz tilida talaffuz qilyapman deb o‘ylasa, u xato qiladi. Ushbu inglizcha so‘zlearning tarkibidagi unililar uchun nemis tilida muqobil variant yo‘q. Urg‘uga uchragan unli so‘z maxsus artikulyatsiyasiga ega, bunda tilning eng baland nuqtasi qattiq tanglay ostidan ancha chuqur, lablari ham yumaloq shaklda bo‘lmaydi. Inglizcha so‘zning nemischa talaffuzida *menejer*, ammo bunda maxsus inglizcha tovush ishlatilmaydi, lekin undagi *e*, nemis tilidagi *Männer* so‘zida talaffuz qilinadigan –e tovushi bilan mos keladi, ya’ni tovush almashtiruvchisi bo‘ladi. Nemis tili kontekstida mos keladigan ingliz tilidagi unli tovushlarni talaffuz qilish (agar siz ularni yaxshi o‘zlashtirsangiz) nemis fonemik tizimiga bog‘lanmasdan, nemis tilidan og‘ish bo‘ladi, bu tovushga ta’sir qiladi.

Fonetik almashtirish xorijiy so‘zlarni talaffuz qilishning odatiy usuli hisoblanadi. odatda, Chet tili talaffuzi bilan tanish bo‘lgan o‘qimishli odamning og‘zida chet tiliningh eshitish taassurotiga eng yaqin bo‘lgan o‘rnini bosuvchi nemis fonemasini ishlatishdan iborat. Masalan, inglizcha *Derby* so‘zi tovush almashtirishning yana bir turini namoyish etadi. Bunday maxsus talaffuz inglizcha talaffuzning ba’zi bir asosiy qoidalarini yaxshi biladigan barcha nemis odamlariga ham tanish emas. Shunday qilib, siz *Derby ni flirten*, *Girl* bilan bog‘laysiz va ushbu so‘zlarni nemis tilidagi “Körper” so‘zidagi umlaut tovushiga moslashtirib talaffuz qilasiz. Til ishtirokchilari uchun ona tilining fonetik xususiyatlarini orqa fonga surish oson ish emas.

Nemis tili lug‘atlari ingliz tili, lotin tili, qadimgi yunon tillaridan o‘zlashgan o‘zlashmalarning ham talaffuzi haqida juda rang-barang tasvirni taqdim etadi. [3:169-185] Nemis lug‘atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bir xil xorijiy so‘zga boshqacha munosabatda bo‘lishadi. Duden chet so‘zlar lug‘atida nemis tilidagi xorijiy so‘zlearning talaffuzi va ularning chet tilidagi talaffuzi o‘rtasida farq bor. Masalan,

chet so‘z deb ataladigan so‘zlar allaqachon Germanizatsiya izlarini aniq ko‘rsatmoqda. Masalan, chet tilidagi *sp* va *st* (stantsiya), *schp* (spurt) sifatida talaffuz qilinadi, aksent chegirma inglizcha chegirma bilan almashtiriladi.

Masalan: *lat -ia dt.ie fran. -ie, -ier dt -ei, ieren*

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Brokartaite I. *Entlehnungen im Deutschen. Kursbuch*, Universität Siala, 2009, S. 27.
2. Brokartaite I. *Entlehnungen im Deutschen. Kursbuch*, Universität Siala, 2009, S. 30.
3. Colliander P. *Die Aussprache der Fremd- und fremden Wörter im Deutschen aus der Sicht des Deutschen als Fremdsprache. Was sagen ausgewählte Wörterbücher?* In: *Triangulum. Germanistisches Jahrbuch für Estland, Lettland, Litauen. Riga und Bonn*, S. 169–185.
4. Polenz P. *Deutsche Sprachgeschichte vom Spätmittelalter bis zur Gegenwart. Bd. 3: 19. Und 20. Jahrhundert*. Berlin/New York: Walter de Gruyter Verlag, 1999, S. 46.
5. Scharnhorst J. *Das Fremdwort – ein heißes Eisen in der Sprachpflege*. In: *Sprachpflege*, 1967/4, S.80.
6. Schippan T. *Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache*. Tübingen, 1992, S. 236-264.
7. Schmidt W. *Deutsche Sprachkunde*. Berlin, 1968, S.79.
8. Tesch G. *Linguale Interferenz. Theoretische, terminologische und methodische Grundfragen zu ihrer Erforschung*, Tübingen, TBL-Verlag Narr, 1978, S. 48.
9. Tesch G. *Linguale Interferenz. Theoretische, terminologische und methodische Grundfragen zu ihrer Erforschung*, Tübingen, TBL-Verlag Narr, 1978, S. 116-128.